

YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLARIMIZ RUHIDA TARBIYALASH

N.L. Xodjayeva

“San’atshunoslik” fakulteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Yosh avlodni tarbiyalashda xalq musiqasi vositasida ma’naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirish va milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash.

Kalit so‘zlar: allomalar, tinchlik, barqarorlik milliy g‘oya, milliy mafkura, kuy, oxang, xotira, cholg‘u asbobi, inson ruhiyati, tovushlar, obrazlar, ta’lim tarbiya musiqa san’ati.

ABSTRACT

Formation of spiritual and moral education by means of folk music in the education of the young generation and education in the spirit of our national values.

Keywords: scholars, peace, stability, national idea, national ideology, melody, melody, memory, musical instrument, human psyche, sounds, images, education, musical art.

Tinchliksevarlik, insonparvarlik, va mehnasevarlik kabi tushunchalar sharq xalqlari hayotiy tajribasi va taraqqiyotida asosiy ma’naviy mezonlardan bo‘lib kelgan. Bugungi demokratik huquqiy jamiyatni shakllantirishda xam butushunchalar e’tibordan chetda qolayotgani yoki aksincha, bugungi yangicha jamiyatni ham asosiy poydevori ayni shu tushunchalarzaminidaqad rostlamoqda. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalikbarqaror bo‘lgan taqdirdagina o‘z oliv maqsadlarigaerishadi, moddiy va ma’naviy yuksaklikka ko‘tariladi. Soxibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movorounnaxrga podshohlik qilgan 40 yil mobaynida mamlakatda tinchlik, barqarorlik ustuvor bo‘lganligi sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko‘hna zaminimiz gullab yashnagan. Aksincha urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzulga botiradi.

SHu boisdan ham mamlakatimizda isloxtlarni amalga oshirish va taraqqiyotimizning asosiy shartlaridan biri sifatida tinchlik va barqarorlik ustuvor vazifa sifatida belgilab ko‘yilgan. SHunday ekan, xalqimiz oldida turgan eng muhim vazifa jamiyatimiz a’zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g‘oya, milliy mafkura, o‘z Vataniga mehr-sadokat tuyg‘usini uyg‘otish, mustaqillikni va uning ne’matlari bo‘lmish tinch va

farovon hayotimizni qadriga yetish ,o‘zlikni anglash, hamda milliy va umumbashariy qadriyatlarimiz ruxida tarbiyalashdan iborat.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Yassaviy hikmatlari, Imom G‘azzoliyning din va dunyo haqidagi qarashlari, Yusuf Hamadoniyning tasavvufi, Termiziy o‘gitlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo‘ldik. Jahon Madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shtan O‘rta Osiyolik allomalar, islom olamidagi buyuk zotlar bilim olish masalasiga jiddiy e’tibor berib qaraganlar. Komil insonni tarbiyalashning birdan-bir yo‘li ana shu bilimda deb bilganlar. Islom dini ma’rifatparvar dindir. Bu xaqda ko‘plab ma’lumotlarni keltirish mumkin. “Qur’oni Karim”da insonni aql ishlatishga chaqiradi. Unda aql insonga berilgan buyuk ne’mat deb ta’riflanadi. Aqlni ishlatmaslikni yomon oqibatlari hususida so‘z yuritiladi. Islomda bilim, aql inson kamolotining mezoni hisoblanib, inson ko‘rish, eshitish, aqlni ishlatish vositasida bilish qobiliyatiga ega bo‘ladi, deyiladi. Hadisi sharifda: “Kimki dunyoni hohlasa, ilm olsin. Kimki oxiratni hohlasa, ilm olsin” deyiladi. Ilm olivjanob va savob ish. Hattoki ilm olish ibodat, taqvodan afzal deyiladi. Ilm xikmat, ilm fazilat, ilmni o‘qish, takrorlash, yozish bilan mustahkamlash, chuqurlashtirish lozim. Ilm kishini turli nopol ishlardan asraydi. Ilm kishilarga naf keltirishi lozim, olimlar buyo‘lda rahnamo bo‘lishlari kerak. Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o‘xshatiladi.

O‘zbek xalqi qadrlaydigan yana bir fazilat bu mexnatsevarlikdir. Insonning kasbu— kori boshqalarga foyda keltirsa bu eng ulug‘ va savobli ish sanaladi. Naqshbandiy ta’limotida ham “Dil ba yoru dast bakor” (diling Allohdha bo‘lsin, ko‘ling mehnatda bo‘lsin) degan hikmatni asl mohiyati ham kishilarni ilm olish bilan bir qatorda kasb— xunar egallashi, mehnat bila hamisha mashg‘ul bo‘lmoqlik kerakligini anglatadi. Halqimiz azal-azaldan mehnatsevar xalq hisoblangan. Farzandlarini ham yoshlikdan mehnatsevarlikka o‘rgatganlar. Mehnatsevarlik kishini kamolotga yetkazuvchi omillardan biridir. Mehnat odamni muhtojlik, hayotdan zerikish, ahloqiy buzilishdan asraydi, kishining obro‘ e’tiborini oshiradi, turmushini barakali qiladi, yaxshi nom bilan eslanishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytamanki bugungi globallashuv jarayonida, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun ommaviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir davrda ularga insonparvarvarlik, tinchliksevarlik, ma’rifatparvarlik va mehnatsevarlik kabi sharq xalqlari xos bo‘lgan ezgu fazilat va sifatlarni singdirib borish nafaqat ota-onalar va pedagog hodimlarning, balki shu obod va ozod diyorda yashayotgan har bir insonning muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1997. -383 b.
2. Davronova G.M. "Musiqa o'qitish metodikasi" - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 161 b.
3. Davronova G.M. "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyixalash" -T. 2019. 166 b.
4. Djamalova D.A. Muzisalno-poeticheskiye traditsii Vostoka v povmshenii effektivnosti muzmkalnogo vospitaniya uchash,ixsya (na materiale vneklassnoy rabotm s uchash,imisya 8-9 klassov srednoy obsh,yeobrazovatelnoy shkolum): - Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. - T., 2003. -20 s.
5. Yermakov D "Kompitentnost v reshenii zadach" // Narodnoye obrazovaniye 2005 № 9.
6. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari. O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotida. - T.: 2000. - 188 b.
7. Kadirov R.G Muzmkalnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. / avtor sost., -T.: Muzmka, 2005
8. Karimova D. Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012.210 6.
9. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorati asoslari (Pedagogika oliv o'quv yurtlarning musiqiy ta'lim yo'naliishi uchun qo'llanma) T. 2011. 144 6.